

## O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

*Shakuova Nursuliu Bayrambay qizi*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

*Milliy góya, ma'naviyat asoslari va huqiq tálimi mutaxasisiligi talabasi*

**Annotaciya:** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida fuxorolik jamiyat qurishta Siyosiy partiylar o'rni haqqida, shuningdek Demokratik institutlar tasnifi va fuqarolik jamiyati institutining shakllanishi va rivojlanishi haqqida.

**Kalit sózlar:** Siyosiy partiya, Fuxorolik ja'miyat, demokratik institut tasnifi, frakciya, ko'ppartiyaviylik.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishida 1996 –yil 25-dekabrda Oliy Majlis qbul qilgan “Siyosiy partiylar to'g'risida”[1] gi qonunning ahamiyati muhim bo'ladi. Qonun 17 moddadan iborat bo'lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qoidalar asosida faoliyat yuritishlari uchun yetakchi va ilg'or mamlakatlar mezonlari talablaridagi huquqiy asoslar yaratildi. Qonunning 5-moddasiga binoan, “davlat siyosiy partiylar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi”. shuningdek, Qonunning 12-moddasida siyosiy hayotda birinchi marta siyosiy partiyalarning huquqlarini aniq va ravshan ko'rsatib berildi: “Siyosiy partiylar quyidagi huquqlarga ega: - o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish; 22 - saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarirlarni tayyorlashda ishtirok etish; - qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,[2] davlat hokimiyati organlari saylovlarda ishtirok etish; - partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar konfrensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish; - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa OAV dan foydalanish; - O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiylari bilan ittifoq (blok) tuzish ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnomaga munosabatlari o'rnatish. Siyosiy partiylar ushbu qonunda hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlarida nazarda tutilgan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishlari ham mumkin[Isrom Karimov] ”. Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri, bu – davlatning siyosiy institutlarida turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishiga huquqiy asoslar yaratib berish, shuningdek huquqiy davlat fuqarolari – plyuralistik siyosiy madaniyatga ega bo'lgan shaxslarni shakllantirishdir. Shu maqsadlarda qonunning 13- moddasida Oliy Majlisdagi partiyaviy fraksiyalarning erkin faoliyat yuritishlari, ularning hozirgi davr ilg'or

mamlakatlaridagi me'yorlar talablariga muvofiq jamiyatning siyosiy rivojlanishiga hissa qo'sha olish darajasiga ko'tarilishlarini huquqiy jihatlardan ta'minlashga asos solindi: "Siyosiy partiyalarning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi fraksiyalari siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishlarida o'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun tuziladi. Fraksiyalar fraksiyaning rahbari bergan tegishli ariza va ta'sis hujjatlariga asosan Oliy Majlis tomonidan ro'yxatga olinadi.

«O'zbekistonda mahalla instituti, ya'ni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi fuqarolik jamiyatining tarixan shakllangan instituti hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining ushbu instituti uzoq vaqtning sinovidan o'tgan hamda jamiyat va davlat o'rtasidagi muhim bog'lovchi bo'g'in sifatida o'zining zarur ekanligini amalda isbotlagan», - deb yozadi[4] [“ANKASAM” veb-sahifasi.]

Demokratik institutlar jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi. Tarixiy jihatdan ularni shartli ravishda demokratik mazmunga ega bo'lgan an'anaviy, ijtimoiy-siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV) hamda faqat demokratik jamiyat sharoitida faoliyat yuritadigan maxsus institutlarga, masalan, inson huquqlariga amal qilinishini ta'minlovchi turli nodavlat tuzilmalarga ajratish mumkin . Demokratik institutlar mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kuchli fuqarolik jamiyatining o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, demokratik tamoyillar rivojida fuqarolik institutlari faoliyatiga keng o'rinn beriladi, ular jamiyatda jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, davlatning e'tiboridan chetda qolgan muammolarni belgilash va bartaraf etishda davlat institutlari bilan hamkorlik qiladi. Bugungi kunda,O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi.[4]

Fuxorolik ja'miyat qurishta 1. Iqtisodiy asos, 2. Ijtimoiy-siyosiy asos, 3. Ma'naviy asos bor bolip hisoblanadi.

Iqtisodiy asos - shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiyligiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko'p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari.

Ijtimoiy-siyosiy asos – mustaqil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi.

Ma'naviy asos – insonlar o'z qadr-qimmatiga, jamiyatning asosiy qadriyatlari himoyasiga tura oladigan zaruriyat tug'ilganda ular uchun kurasha oladigan bo'lislari, vijdon erkinligi, ahloqiy normalarga rioya qilish, yagona mafkura dunyoqarashning yakka hokimligining mayjud emasligi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari, fuqarolik pozisiyasiga ega ekanligi. Harqanday fuxorolik ja'miyat qurishta eng avallo xaliqu qurishini inobatka olinishi kerak.

Xulosa shunnan iborat Fuqarolik jamiyatini tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun avvalo u haqdagi g'oyalar genezisini, asoslarini bilish lozim.

Fuqarolik jamiyati – bu uzoq va bosqichma-bosqich tarzdagi tarixiy rivojlanish natijasidan iborat bo'lib, fuqarolik jamiyati shakllangan va rivojlangan oraliq davr – bir necha avlodlarning yangi jamiyat qurishdagi ishtiroki.

Fuqarolik jamiyati kategoriyasi tarixan insoniyat rivojlanishining shunday bir alohida yo'nalishini aks ettiradiki, u har bir davrning o'ziga xos murakkabligini oqilonalik, erkinlik, farovonlik va adolat hukm suruvchi ideal jamiyat modelini yaratishga intilishi bilan tavsiflanadi.

#### **Manbalar:**

1. "Siyosiy partiylar haqida nizom"
2. Karimov I.A "Ózbekston bozor munasabatlariga ótishning óz yóli" -1993.63-bet
3. "ANKASAM" veb-sahifasi.
4. Quldashev.A "Fuxorolik jámiyatni tarraqiyotida Ózbekstonni rivojlandirish strategiyasi" 2020 8-12-b